



FRANSIYA ABSOLYUTIZMI DAVRIDA KARDINAL RISHELYE

M.M.Xoshimova¹,

Mamatov Bektosh Tolibjon o'g'li²

¹Ilmiy rahbar: dots.

Tarix fakulteti 4-kurs talabasi

¹⁻²Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand shahar

e-mail: bektosh.mamatov@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6529233>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Qizil kardinal , 30 yillik urush, to'pponcha diplomatiyasi, cherkov, katolik, protestant, gugenotlar , fanlar akademiyasi, regent.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Fransuz absolyutizmining asoschisi, Lyudovik XIII ning birinchi vaziri Kardinal Rishelyening faoliyati tahlil qilinadi. XVII asrdagi fransuz absolyutizmini o'rganish katta ilmiy ahamiyatga ega, chunki uning o'rganilishi o'sha davrdagi Fransiya davlati mutlaq monarxiya misolida absolyutizmning asosiy xususiyatlarini aniq ko'rsatishga imkon beradi.

XVI asr boshlariga kelib Fransiya yagona davlatga aylandi . Bu davlatning shakli "absolyutizm" ya'ni birinchi navbatda qonun chiqaruvchi , ijro etuvchi va sud hokimiyatining barcha to'liqligi davlat boshlig'i bo'lgan qirol qo'lida to'planganligi bilan tavsiflanadi. Bu esa qirolning birinchi vaziri Kardinal Rishelye nomi bilan bog'liq.

Kardinalning to'liq ismi Armand-Jan du Plessis de Rishelye, 1585-yil 9-sentyabrda tug'ilgan, u Parijda yoki Poitou provinsiyasidagi Rishelye qasrida qashshoq zodagonlar oilasida tug'ilgan edi. Rishelyening otasi Genrix III davrida Fransiyaning bosh sudyasi bo'lgan, uning ismi Fransua du Plessis, onasi esa Parij parlamentida advokat oilasidan chiqqan, uning ismi Suzanna de la Porte edi. Jan besh yoshga to'lganda, otasi vafot etdi va rafiqasi besh bolasi bilan yolg'iz qoldi, ularning eskirgan mulk va katta qarzlari

bor edi. Shunga qaramasdan Rishelyelar oilasi 17 ta eng boy fransuz oilasiga o'xshab yashashga harakat qilishardi. Fransua o'limidan so'ng Genrix IV bu oilaga ikki marta katta miqdorda pul ajratadi¹. Bolaligidagi qiyinchiliklar Janning fe'l-atvoriga katta ta'sir ko'rsatdi. U Parijdagi Navarra kollejida tahsil oldi va Markiz du Chil unvonini meros qilib , otasining izidan borib, harbiy xizmatga kirishga tayyorlanayotgan edi. Oiladagi asosiy daromad La-Roshelle hududidagi yeparxiyaning katolik ruhoniysi lavozimidan olingan daromad edi. Ammo, uni saqlab qolish uchun oiladan kimdir monastr buyrug'ini olishi kerak bo'lgan. Armand uchta aka-ukaning eng kichigi edi. O'rta akasi cherkov kareyerasini tark etganligi sababli, Armand Rishelye ismini va Luzon (La-Roshelledan 30 km shimolda)

¹ Кардинал Ришельё у власти. - regnum.ru



yepiskopi unvonini olishga majbur bo'ladi (1608-1623).

U 1614-yilda ruhoniylardan general shtatlarga deputat etib saylandi va regent Mari de Medichining e'tiborini tortdi. Bir muncha vaqt o'tgach, Rishelye uning maslahatchisi, Lyudovik XIII ning rafiqasi Avstriyalik Annaning konfesatori bo'ldi. Keyin esa qisqa muddat tashqi ishlar va harbiy ishlar bo'yicha davlat kotibi bo'lib ishladi. Birozdan so'ng, aniqrog'i 1622-yilda Rishelye Lyudovik XIII homiyligida Rim Papasi tomonidan " kardinal" unvonini olish bilan bir qatorda, 1624-yilda u Qirollik kengashi a'zosi bo'ladi. Keyinchalik u birinchi vazir va umrining oxirigacha esa Fransiyaning amalda hukmdori bo'lib qoldi.

Kardinal Reshelye davlat siyosatiga rahbarlik qilganligi uchun uni ko'pincha rasmiy manbalarda "birinchi vazir" deb atashadi. Rishelye hukumat tepasiga kelishi bilan , islohotlar yo'lini tutdi va ulardan maqsad nimaligini shunday ifodalaydi: "Mening birinchi maqsadim qirolning ulug'vorligi edi, ikkinchi maqsadim davlatning qudratlilikidir"².

Rishelye birinchi vazir sifatida tashqi siyosat muvaffaqiyatining kaliti- mamlakat ichidagi barqarorlikni ta'minlash deb biladi. U chegara shaharlarni himoya qilish va kutilmagan niyatlarga qarshi turish uchun 4 ming otliq askar va 40 ming piyoda doimiy ravishda saqlash kerak degan fikrni olg'a suradi . Uning siyosati absolyutizm va Fransiyaning xalqaro mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan edi. Uning davrida armiya qayta tashkil qilindi va bu 1618-1648- yillardagi "30

yillik urush" da Fransiyaning g'alabasiga hissa qo'shdi. Yana bir narsani takidlab o'tish kerakki, Rishelye Shimoliy Amerika, Antil orollari, Sent-Domen, Senegal va Madagaskardagi fransuz mustamlakalarini kengaytirishga intildi.

Kardinal qirolning birinchi vaziri bo'lib , 18 yil Fransiya siyosatini o'z qo'lida ushlab turgan va 150 yil davomida ya'ni 1789-yilgi Buyuk fransuz inqilobigacha saqlanib qolgan siyosiy tuzumni yaratdi. Birinchi vazir qirol hokimyatini mustahkamlash va separatistik guruhlariga ayniqsa, gugenotlarning davlat ichidagi davlatini yo'qotish vazifasini qo'ydi . U gugenotlarni qirol Genrix IV ning (1598) Nant farmoni bilan ularga berilgan siyosiy huquqlardan mahrum qildi. Qirollik armiyasi La-Roshelleni qo'lga kiritdi. Larosheldagi g'alaba gugenot zodagonlarining separatistik qarashlariga chek qo'ydi. Shu bilan birgalikda, Fransiyaning raqiblariga dengizdan qilingan har qanday bosqin muvaffaqiyatsizlikka uchrashini aniq ko'rsatdi. Fransuzlarning Korbida erishgan g'alabasi chet el bosqinining urinishlarini tugatdi. Gugenotlardan ularning qal'alari, shaharlari , qo'rg'onlari olib qo'yildi. Ammo, kardinal ularning diniy erkinligini cheklamadi. Nant farmonidan keyin La-Roshelle chet elliklar bilan erkin savdo qilish huquqini oldi. Chunki bu yerda urush boshlaridanoq savdogarlar oligarxiyasi hukmron edi ³.

Uning davridan boshlab General shtatlar chaqirilmay qo'yildi. Rishelye o'zbilarmonlik qilganlarni ayovsiz jazolar va amaldorlarni vazifasini olib tashlardi. Ahamiyatli jihati, u zodagonlar o'rtasida

² Ришелье А.- Ж.дю Плесси. Политическое завещание. Принципы управления государством.- М.:Ладомир, 2008.- С.149

³ Беллок Х. "Ришелье".- М.:Алетейя,2002.-С.73



duelni man qildi va qon faqat qirol uchun to'kilishi kerak degan fikrni ilgari surdi. Xazinani to'ldirish uchun Rishelye sanoatni, savdoni, kema qatnovini qo'llab quvvatladi. Uning davrida Fransiya o'ttiz yillik urush (1618-1648) urushga tortildi. U fransuzlarni (katoliklar va gugenotlar) o'zaro yarashtirdi va "to'pponcha diplomatiyasi" tufayli ularning dushmanlari bilan janjallashib, Gabsburglarga qarshi koalitsiya tuzishga muvaffaq bo'ldi⁴.

Fransuz armiyasi Yevropada eng kuchli armiyaga aylandi, bu haqda uning g'alabalari, ispan va avstryalik gabsburglarga qarshi kurashib Elzas, Lotaringiya va Russolinoni qo'shib olinishi aytib turibdi⁵. Rishelye Genrix IV ning mamlakatni mustahkamlash va birlashtirish yo'lini davom ettiradi, uning davrida diniy taqiblar to'xtatildi, mamlakatda diniy taqiblarga chek qo'yish maqsadida u "gugenotlar ham, katoliklar ham mening ko'z oldimda fransuzlardir, mening davlat dushmanlarimdan boshqa dushmanlarim yo'q" deydi.

Uning tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi avstriyalik va ispanyalik gabsburglari hokimiyatini yo'q qilish edi. Germaniyani yagona imperator hokimiyati ostida birlashtirishini Reshelye Fransiya uchun katta xavf sifatida ko'rdi. Bunga qarshi u tashqi kuchlardan foydalangan holda imperatorga qarshi koalitsiya tuzadi, unga qarshi bo'lgan nemis knyazlari va protestant ruhoniylarni qo'llab quvvatladi. Shu bilan bir qatorda, u nemis knyazlaridan Reyn daryosining nemis hududlarigacha bo'lgan yerlarni olishni kutgan edi. 1631-

yilda Shvetsiya (qirol Gustav Adolf) bilan ittifoq tuzadi, Fransiyaning moliyaviy yordami asosida Shvetsiya askarlarini imperatorga qarshi qaratdi. Uning rejaralarini amalga oshirishga yordam bergan Angliya bilan yaqin ittifoqchi bo'lishni maqsad qilib, nikoh asosida ittifoq tuzishni taklif qildi⁶. Lekin, o'sha vaqtda Angliya va Fransiya munosabatlari yaxshi emas edi. Styuartlar sulolasi maqsadli siyosat olib bormayotgan edi.

Reshelye mohir diplomatiya ishlatib, 1640-yil Katalonyada ispanlarga qarshi qo'zg'alon ko'tarishga erishadi, natijada Katalonya 1640-1659-yillarda Fransiya humkronligi ostida bo'ladi. Huddi shu yili Portugalyada Gabsburglar hukmronligining barham berildi⁷.

Kardinal Reshelye tashabbusi bilan 1635-yil 10-fevral kuni tashkil qilingan Fransiya Fanlar akademiyasi esa milliy ma'rifiy ishlarining markaziga aylandi. Uning qoshida bir qancha litseylar tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda, Sorbonna qayta tashkil etildi⁸. O'ttiz yillik urush Yevropada gazetalarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. Fransiya'dagi birinchi shunday gazetalardan biri "La Gazette" edi. Uning asoschisi Teofrast Renaudo edi. Qirol hokimiyati olib borilayotgan siyosatni targ'ib qilish uchun o'z nazorati ostidagi gazeta ega bo'lish kerak edi. Rishelye birinchi vazir sifatida jurnalistika rivojini rag'batlantirdi, undan mohirona foydalanib, o'zining siyosiy qarashlarini xalq orasida yoydi. 1631-yil may oyida bunday gazeta paydo bo'ldi.

⁶ Черкасов П.П., «Кардинал Ришелье». - М.:

Международные отношения, 1990.-С.86

⁷ Беллок Х. "Ришелье". - М.: Алетея, 2002.-С.108

⁸ Сорбонна (Sorbonne). - petersway.org

⁴ Ришелье А.- Ж.дю Плесси. Политическое завещание. Принципы управления государством.- М.: Ладомир, 2008.- С.20

⁵ Кардинал Ришелье у власти.- regnum.ru



O'sha yilning oktyabr oyida kardinal Rishelye bilan tanishishi tufayli Renaudeau gazeta nashr etish uchun qirollik imtiyoziga ega bo'ldi⁹. Kardinal o'zining Siyosiy Vasiyotnomasida ("LE TESTAMENT POLITIQUE") fransuz absolyutizmi siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Siyosiy vasiyat 2 qismdan iborat bo'lib, 1-qismida davlat boshqaruv apparati faoliyati va davlat arboblarning axloqiy fazilatlariga yetarlicha to'xtalib o'tadi. 2-qismida esa ichki va tashqi siyosatda yo'naltirish kerak bo'lgan tamoyillarga to'xtalib, qisqacha qilib aytganda boshqaruv san'ati haqidagi fikrlarni umumlashtiradi.

Rishelye o'zining asosiy vazifalaridan biri deb zodagonlarning kuchayib borayotgan burjuaziyadan mavqeyini ustun tutishda deb bildi. U tug'ma zodagon bo'lib, o'zi chin dildan zodagonlar bilan hamdard bo'lgan deyish mumkin va o'z siyosatida ularning ko'pchiligini ustun turishini xohlagan bo'lishi mumkin. Rishelye "zodagonlarni davlatning asosiy tayanch tomirlaridan biri sifatida ko'rish kerak, bu esa ularni saqlab qolish va davlatni mustahkamlashga katta hissa qo'shishi mumkin", deb hisoblagan. "Qirol saroyi esa zodagonlar manfaatlarini himoya qilib, zodagonlar tabaqasining tarbiyachisi rolini o'ynashi kerak" deb ilgari surgan fikrlari "Siyosiy vasiyat" ning uchinchi bobida - ya'ni "Olijanoblik to'g'risida" deb nomlangan bobida o'z aksini topgan.

Uning o'sha davrdagi faoliyati tarixchilarining diqqatini tortdi. Ularning ba'zilari Reshelyeda eng yirik va ilg'or arbobni ko'rdilar. Masalan, O.Tyeri uni "burjua jamiyatiga yo'l ochgan daho" deb

o'ylaydi. Fagnes uning tashqi siyosatini yuqori baholaydi. Biroq, shunga qaramay unga salbiy fikr bildirganlar ham bor, ulardan J. Avenel Reshelyeni "fransuz aristokratiyasining o'limining asosiy sababi" deb ta'rif bergan edi. Ulardan J. Meshel esa uning gugenotlarga qarshi kurashini qoralagan.

Rishelye o'z siyosatini Genrix IV dasturini amalga oshirishga asosladi: davlatni mustahkamlash, uni markazlashtirish, dunyoviy hokimiyatning cherkov va markazning viloyatlar ustidan ustunligini ta'minlash, aristokratik muxolifatni yo'q qilish va Yevropadagi ispan-avstriya gegemonligiga qarshi kurashishdir. Rishelye davlat faoliyatining asosiy natijasi Fransiyada absolyutizmning qaror topishidir. Bu bilan u mulkiy monarxiyani tubdan qayta qurishga muvaffaq bo'ldi.

⁹ Кнехт Р. "Ришелье".-Ростов н/д.:Феникс,1986.-С.3



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ришелье А.- Ж.дю Плесси. Политическое завещание. Принципы управления государством.- М.:Ладомир, 2008.- 500 с
2. Кнехт Р. "Ришелье".-Ростов н/д.:Феникс,1986.-132с
3. Беллок Х. "Ришелье".- М.:Алетейа,2002.-112с
4. Черкасов П.П, «Кардинал Ришелье» .- М.: Международные отношения,1990.-384с
5. Арман Жан дю Плесси Ришелье . - Hrono.ru
6. Сорбонна(Sarbonne). - Petersway.org
7. Кардинал Ришельё у власти . - Regnum.ru